

**„AVESTO” - ZARDUSHTIYLIK DININING TA'LIMOTI
SIFATIDA**

Baxramova Dildora Ibrohimjon qizi

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali tarix yo'nalishi 1-
bosqich talabasi.*

Tel: +998 (94)-710-65-75. E-mail: @dildorabahramova0@gmail.com

«АВЕСТО» - КАК УЧЕНИЕ ЗОРОАСТСКОЙ РЕЛИГИИ

Бахрамова Дилдора Иброхимжон кизи

*Ташкентский международный химический университет,
Наманганский филиал, исторический факультет 1-
студент сцены.*

Телефон: +998 (94)-710-65-75. Электронная почта:

@dildorabahramova0@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada Avestoda O`rta Osiyoning qadimiy davrlari xususida berilgan ma`lumotlar keltiriladi. O`rta Osiyo aholisining 1500 yil davomida Zardushtiylikning muqaddas kitobi Avesto asosida e`tiqod qilganlari yoritib beriladi. Avesto va Zardushtiylikdagi ba`zi bir odatlarning hozirda ham insonlar tomonidan bajarilishiga ham e`tibor qaratilgan. Avestoning butun dunyo bo`ylab tarqalishini ham tahlil qilib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Xorazm, Avesto, Zardushtiylik, Mitra, Axriman, Anahita, Chinvot, Mery Boys.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье представлены сведения, данные в Авесте о древнейших временах Средней Азии. Будет объяснено верование народов Средней Азии на протяжении 1500 лет на основе Авесты – священной книги зороастризма. Внимание также сосредоточено на*

выполнении некоторых обычаев в Авесте и зороастризме и сейчас. Также анализируется распространение Авесты по миру.

Ключевые слова: *Хорезм, Авеста, зороастризм, Митра, Ариман, Анахита, Чинвот, Мэри Бойс.*

ANNOTATION: *This article presents information about the ancient times of Central Asia in the Avesta. It highlights the beliefs of the people of Central Asia based on the sacred book of Zoroastrianism, the Avesta, for 1500 years. Attention is also paid to the fact that some customs from the Avesta and Zoroastrianism are still practiced by people today. The spread of the Avesta throughout the world is also analyzed.*

Keywords: *Khorezm, Avesta, Zoroastrianism, Mithra, Ahriman, Anahita, Chinvot, Mery Boys.*

Zardushtiylik eng qadimgi dinlardan biri bo'lib, bu din eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda O'rta Osiyodaning Xorazm diyorida paydo bo'lgan. Uning payg'ambari Zardusht hisoblanadi. U mazdakiylik dinini isloh qilib, uning asosida Yakkaxudolik dinini olib kelgan. Ko'p tadqiqotchilar Zardusht 589-512 yillarda [Shamsutdinov R, Karimov Sh, Xoshimov S.] yashab ijod etgan shaxslardan biri bo'lib. Uni manbalarda faylasuf, tabiyatshunos va shoir bo'lgani e'tirof etilgan. Zardushtiylik paydo bo'lgan davrda quldorlik tuzumi endigina paydo bo'layotgan edi. Bu din eng avval O'rta Osiyo, so'ngra Eron va Ozarbayjonda qaror topgan hamda Hindiston hududigacha kirib borgan edi. Zardushtiylik ta'limoti asosini ikki qarama-qarshi qutblar: ezgulik va yovuzlik, yorug'lik va qorong'ulik, adolat va razolat o'rtasidagi kurashlar va tomonlarning inson ongini egallash bilan bog'liq jihatlar tashkil etadi.

Zardusht insonlarni ezgulik sari intilishlarini orzu qilgan payg'ambar edi. Insonlarning ibtidoiy dinlaridan biri otashparaslik bo'lib, u to zardushtiylik ta'limoti bilan qayta shakllanmaguncha jamiyatning o'ziga xos uruf-odatlarini, qonun-qoidalarini yaratib kelgan. Zardusht esa o'z ta'limoti bilan ularni tartibga keltirib, "Avesto" kitobiga asos soldi.

Zardushtiylikda odamning olamga munosabati orqali uni inson darajasidagi kamolatga yetkazish g'oyasi yotadi. Bu ta'limot olam va odamning o'zaro uzviy bog'liq ekanligini tushuntirishga, odamni yaratgan borliqni, ya'ni tirikligi manbayi bo'lgan olam egasi sanalgan inson bu ne'matni himoya qilishga, asrashga, unga zarar yetkasmaqlikka mas'ulligini tushuntiriladi. Ezgu o'y, ezgu so'z va ezgu amal egasi inson ezgulik dunyosini yaratgan iloh Axura Mazdani tan olishi, uning payg'ambari Zardusht ko'rsatmalariga amal qilishi shart edi. Avesto so'zining ma'nosi ham "qat'iy belgilangan qonun qoidalar" deb tarjima qilinadi. Avesto odatlari jamiyatga sekin asta singib boraverdi. Natijada insonlar hayotida o'zgarishlar boshlandi. Biroq bunday keskin burilishga jamiyat tayyor emas edi. Shu bois zardushtiylikdagi yakka xudolik g'oyasi avvalgi otashtparastlar orasida mavjud bo'lgan ko'pxudolik an'analari bilan qorishib ketadi. Natijada insonlar ongi, so'z va hatti-harakatida ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash, ya'ni dualistik dunyoqarash namoyon bo'ladi. Zardushtiylik dini dualizm hisoblanib, ya'ni ikkilik(yakka va ko'pxudolik hamda yovuzlik va yaxshilik)ka asoslangan. Ezgulik dunyosini yaratgan Axura Mazda yovuzlik dunyosi boshida turgan Axrimanning qarshiligiga uchraydi. Ikki kuch o'rtasida inson tafakkuri uchun kurash ketadi. Bu kurash insonning yashash tarzini belgilab beradi. Tanlov insonning o'zida qoladi. Axura Mazda barcha insonlarni ezgulik uchun kurashishga chorlaydi. Bu chorlovning ijtimoiy-axloqiy tizimini Zardusht orqali xabar qiladi. Xususan, Avestoning qisimlaridan „Yasna“ kitobida keltirilishicha, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurashda oraliq yo'l bo'lmaydi. Olam va odamning o'zaro bog'liqligi zardusht ta'limotining muhim bo'g'inidir. Shu bois butun olam to'rt unsur: tuproq, suv, havo va olovdan iboratligi tushuntiriladi. Aynan Axura Mazda yaratgan odamning tabiati, ushbu to'rt unsur bilan bog'liq sanalib, to'rt unsur muqaddaslashtiriladi. Bu muqaddas unsurlarga zarar yetkazish, ifloslantirish, ehtiyot qilmay sarflash eng katta gunoh sifatida talqin etiladi.

Jumladan, zardushtiylikka ko'ra vafot etgan insonni dafn etishda alohida marosim bo'lib, unga ko'ra murda suvga, olovga otish va xatto yerga ham ko'mish

taqiqlanadi. Jasadni maxsus tepalikka olib borib go'shtlarini yirtqich hayvonlar va o'laksaxo'rlar yeb tugatgunicha qoldiriladi. So'ngra ularni maxsus suyakdon "Ossuariy"ga solinib yoki ko'miladi yoki saqlab qo'yiladi. "Avesto" zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lib, shu dindagi xalqlarning qonunlari majmuasidir. Unda ezgulik xudosi Axura Mazda, quyosh xudosi Mitra hamda yovuzlik xudosi Anaxitadir. Mitra insonlarni qilgan amallarini so'roqlovchidir. Bundan tashqari "Chinvot" nomli ko'pirikdan insonlar keyingi hayotda o'tishligi keltirilgan.

Bizgacha yetib kelgan „Avesto“ qismlari sosoniylar davrida, ya'ni milodning III-VII asrlarida tahrir qilingan. „Avesto“ boblari „pahlaviy“ tilida ham bitilgan bo'lib, yozuv o'rta forslar alifbosida 48 ta belgili yozuvlardan iborat. „Avesto“ o'rta fors tillarida „Apastak“ ya'ni „Asos“ ma'nosini beradi. 1755-1761 yillarda fransuz olimi Anketil Dyuperron Hindistonning Gujorot viloyatida Eron zardushtiyalarining avlodlari- parslarning urf-odatlarini bilan tanishib chiqqan. A.Dyuperron 1771-yilda „Avestoni“ tarjima qilgan. [Sagdullayev A] XIX va XX asrning boshlarida esa, „Avestoni“ yangi tarjimalari vujudga kelgan. Meri Boys esa ingliz olimlari orasida Avestoni batafsil o'rgangan olimadir. Xattoki u bir necha yil hindlar orasida yashab zardushtiylikni o'rgangan. Dastlab „Avesto“ 21 ta kitobdan iborat bo'lgan. Lekin bizgacha uning ayrim qismlari yetib kelgan: Yasna- qurbonlik keltirish. Yasna kitobi 72 bobni [Sagdullayev A] o'z ichiga olib, ulardan 17 tasi "Gotlar" ya'ni zardushtiyalar payg'ambari Zaratushtraning "Muqaddas qo'shiqlari" va diniy nasihatlaridan iborat hoblangan. Ammo «Avesto»ning Gotlari va Yasht boblarida Zaratushtra tarixiy shaxs sifatida yoritilgan.

Zaratushtraning ismi qadimiy «Zaraushtra» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ma'nosi esa zar, oltin, tushtra esa tuya ma'nosini bildirib, uch xil ma'noda «Oltin tuyali», «Oltin tuya egasi», «Tuyalar yetaklagan odam» deb tarjima qilinadi. Manbada Zaratushtra urug'ining nomi, ota va onasining ismlari, oilasi va farzandlari haqida ma'lumotlar mavjud. Zaratushtra chorvadorlar jamiyatida tavallud topib, uning e'tiqodlari va urf-odatlarini doirasida voyaga yetgan. U Spitama avlodidan kelib chiqqan degan ma'lumotlar ham uchraydi. Zaratushtra

otasi va onasining ismlari - Pourushasp va Dug-dova edi. Zaratushtra uylangan bo'lib, ikkita qiz farzand ko'rgan. Zaratushtra tavallud topgan yurtda, qabilalar o'z ajdodlarining qadimiy ma'budlari - «dayva»larga sig'inishgan. Tarixiy rivoyatlarga ko'ra, Zaratushtra 30 yoshida xudo Axuramazdadan kelgan vahiy larni olganidan so'ng, Axuramazdani ulug' va donishmand oliy xudo deb, dayvlarga ta'zim qilish odatlarini inkor etadi. Zaratushtraning diniy nasihatlari o'z vatanida tarafdorlarini topmagan va mahalliy kohinlar uning ta'limotiga qarshi chiqqan. Shu sababli yangi dinning asoschisi o'z yurtini tashlab chiqib ketishga majbur bo'lgan. Gotlarda Zaratushtra bunday xabar qiladi: «Qay tomonga, qaysi yurtga qochib qutulsam, meni jangchilardan va kohinlardan ajratib qo'ydilar, jamoa meni quvvatlamaydi, mamlakatlarning yovuz sardorlari meni qabul qilmaydilar». Beruniy asarida o'z aksini topgan tarixiy rivoyatlarga ko'ra Zaratushtrani Balx podshosi, ya'ni Baqtriya hukmdori Vishtasp o'z yurtida qabul qilgan. Vishtasp va uning xotini malika Xutaosa va podsho oilasining boshqa vakillari uzoq va yaqin qarindoshlari Zaratushtra ta'limotiga qiziqib, uning e'tiqodini qabul qilgan birinchi tarafdorlari deb hisoblanadilar. «Avesto»da Vishtasp «kavi» - podsho deb ataladi. Zardushtiylik ta'limotiga bugungi kunda ham Hindiston va Eron hududlarida e'tiqod qilib kelinmoqda. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi Avesto ikki marta o'zbek tilida ham nashr etilgan. Avestoni o'rganish davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1]. Sagdullayev A. O'zbekiston tarixi (Birinchi kitob) T.: «VNESHIN VESTPROM», 2019, 642-bet.
- [2]. SHamsutdinov R., Karimov Sh., Xoshimova S. Vatan tarixi (Birinchi kitob) T.: «Sharq» 2010, 538-bet.
- [3]. Sagdullayev A. O'zbekiston tarixi (Birinchi kitob) T.: «Fan», 2018, 512-bet.